

MINTAQAVIY NASHRLAR: TIZIMLI TO'SIQLAR VA ISTIQBOLLAR

Sadoqat Raxmatova

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti "Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar" kafedrası o'qituvchisi

sadoqat.rahmatova97@gmail.com

+998919554446

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyatining mahalliy bosma nashrlari ("Nasaf", "Voha", "Sadoqat", "Chiroqchi", "Qashqadaryo sporti" va "Dehqonobod ovozi") faoliyati misolida hududiy matbuotning tizimli muammolari tahlil qilingan. Maqolada gazetalarning moliyaviy inqirozlari, kadrlar yetishmasligi, bosma tirajlarning kamayishi hamda kontentning rasmiylashib borayotgani kabi omillar ochib berilgan. Shuningdek, an'anaviy nashrlarning ijtimoiy tarmoqlardagi (Telegram, Instagram, YouTube) faolligi qiyosiy o'rganilib, raqamli platformalarda interfaollikning pastligi, tahliliy materiallar tanqisligi va vizual modeldagi kamchiliklar ko'rsatib o'tilgan hamda mahalliy matbuotni rivojlantirish bo'yicha tegishli xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: *Hududiy matbuot, raqamli transformatsiya, bosma nashrlar, Qashqadaryo matbuoti, moliyaviy inqiroz, kontent tahlili, tiraj dinamikasi, ijtimoiy tarmoqlar, interfaollik, tahliliy jurnalistika.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье на примере местных печатных изданий Кашкадарьинской области ("Насаф", "Воха", "Садокат", "Чирокчи", "Кашкадарё спорти" и "Дехканабад овози") анализируются системные проблемы региональной прессы и процессы цифровой трансформации. В работе раскрыты такие факторы, как финансовый кризис газет, нехватка кадров, сокращение тиражей и доминирование официального хроникального контента. Также проведено сравнительное исследование активности традиционных изданий в социальных сетях (Telegram, Instagram, YouTube), выявлены недостатки в интерактивности, нехватка аналитических материалов и проблемы визуального моделирования на цифровых платформах, сформулированы выводы по развитию местной прессы.

Ключевые слова: *Региональная пресса, цифровая трансформация, печатные издания, пресса Кашкадарьи, финансовый кризис, анализ контента, динамика тиража, социальные сети, интерактивность, аналитическая журналистика.*

ABSTRACT

This article analyzes the systemic problems and digital transformation processes of regional press, using the case study of local print publications in the Qashqadaryo region ("Nasaf", "Voha", "Sadoqat", "Chiroqchi", "Qashqadaryo sporti", and "Dehqonobod ovozi"). The paper highlights factors such as financial crises of newspapers, shortage of

professional staff, decreasing print circulation, and the formalization of content. Furthermore, a comparative study explores the performance of traditional publications on social media platforms (Telegram, Instagram, YouTube), identifying low interactivity, a scarcity of analytical materials, and flaws in visual modeling, and provides relevant conclusions for the advancement of local media.

Keywords: *Regional press, digital transformation, print media, Qashqadaryo press, financial crisis, content analysis, circulation dynamics, social media, interactivity, analytical journalism.*

Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari shiddat bilan rivojlanayotgan davrda an'anaviy bosma nashrlar, xususan, viloyat va tuman miqyosidagi gazetalar faoliyatida jiddiy tizimli to'siqlar kuzatilmoqda. Moliyaviy qiyinchiliklar, o'quvchi bazasining torligi, nashr tarqatish tizimidagi uzilishlar, axborot yangilanish sur'atining pastligi, kadrlar taqchilligi va ularning malaka darajasi, kontentning bir xilligi, zamonaviy grafik dizaynning yetishmasligi hamda reklama tushumlarining ozligi hududiy matbuotning rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan asosiy omillardandir. Ko'pincha viloyat nashrlarida malakali jurnalistlar soni keskin kam bo'lib, tahririyatlarda atigi bir nechta xodim faoliyat yuritishga majbur bo'lmoqda.

Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyatida nashr etilayotgan bir qator viloyat va tuman gazetalar misolida hududiy matbuotning bugungi holati, tarkibiy muammolari tahlil qilinadi.

Qishloq va viloyat gazetalar ko'pincha budjet cheklovlariga duch keladi, bu esa obunachilar pullarini yig'ishda qiyinchiliklar tug'diradi. Masalan, Qashqadaryo viloyati "Nasaf" nomli gazetasining holati mazkur holatni yorqin namoyish etadi. Shahar hokimligi nashri bo'lgan ushbu gazeta 2018-yilning oktyabr-dekabr oylarida viloyat matbuot tarqatuvchi korxonasi orqali 10 million so'mdan ortiq obunachilar to'lovlarini ololmaganligi sababli chop etishni to'xtatgan edi. Bosh muharrir Zebo Qosimovning ta'kidlashicha, xodimlar maoshi, soliqlar va bosmaxona xarajatlari doimiy ravishda kechikib borardi⁶³.

O'sha davrda tahririyatda atigi uch kishi: bosh muharrir, sahifalovchi va tahrirchi faoliyat yuritgan. Ulardan faqat rahbar professional tajribaga ega bo'lib, qolgan xodimlar jurnalistika sohasidan uzoq kasb egalari edi. Kontent va texnik infratuzilmadagi kamchiliklar "Nasaf" gazetasining sahifalarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Har bir sonda bir xil suratlardan qayta-qayta foydalanilgan, bu esa vizual estetika va o'quvchi qiziqishini pasaytirgan. Texnik jihozlarning eskirganligi, zamonaviy dasturiy ta'minotlarning (masalan, Adobe InDesign) yo'qligi tufayli sahifalash jarayoni sekin va sifatsiz kechgan. Tahliliy maqolalar deyarli uchramay, aksariyat materiallar xronika uslubidagi oddiy xabarlardan iborat bo'lgan. Moliyaviy inqiroz tufayli gazeta 2019-yilda ham muntazam chop etilmagan. Bugungi kunda

⁶³ Xabar.uz. "Va'daboz tashkilot". Qashqadaryo "Matbuot tarqatuvchi" ShK atrofidagi mashmashalar. <https://www.xabar.uz/uz/jamiyat/vadaboz-tashkilot-qashqadaryo-matbuot/>. 26.12.2018

nashr faoliyati tiklangan bo'lsa-da, kontent va vizual modelda jiddiy ijobiy o'zgarishlar ko'zga tashlanmaydi, materiallar hamon eski andozalar asosida chiqarilmoqda.

Xuddi shunday tarkibiy muammolar "Voha" gazetasida ham kuzatilgan. Xususan, nashr hajmi 2023 yilgacha 16 sahifadan iborat bo'lgan bo'lsa, o'sha yil rahbariyat almashgach, gazeta 8 sahifaga tushirildi⁶⁴. Sahifalar sonining qisqarishi, nashrning axborot-tahlil doirasini sezilarli darajada toraytirib, maqolalar va tahliliy materiallar, intervyular, yangiliklar hajmini cheklab qo'ydi. Vaholanki, gazetaning 2019 yilgi sonlarida vizual jozibadorlikni oshirish uchun ba'zan yaltiroq qog'ozlardan ham foydalanilgan edi⁶⁵.

Avvalgi davrlarda "Voha" gazetasida dolzarb muammolar chuqur tahlil qilingan bo'lsa, hozirda tahliliy komponent o'rnini rasmiy bayonotlar va quruq axborotlar egallagan. Gazetada statistik ma'lumotlar, mutaxassis (iqtisodchilar, tarixshunoslar, olimlar) sharhlari va manbali tahlillar kam uchraydi. Shuningdek, nafaqat shou-biznes, balki viloyat iqtisodiyoti, tadbirkorlik, qishloq xo'jaligi, sanoat va turizm kabi strategik yo'nalishlar bo'yicha ekspertlar bilan uyushtiriladigan chuqur intervyular ham to'xtatilgan yoki minimal darajaga tushgan; kontent asosan tibbiyot xodimlari faoliyatini yoritish bilan cheklanib qolgan. Mazkur omillar natijasida gazeta o'zining avvalgi ommaviy auditoriyasini va jamiyatdagi ijtimoiy-ma'naviy ta'sir kuchini sezilarli darajada yo'qotdi.

Qiyosiy tahlillar hududiy matbuotning uslubiy jihatdan ham oqsayotganini ko'rsatadi. Masalan, 2020 yildagi "Sadoqat" gazetasining asosiy muammo va kamchiliklariga ko'pincha bir tomonlama, rasmiy ruhda yoritilishi bo'lgan. Nashr davlat qarorlari, yig'ilishlar va topshiriqlar haqida axborot berish bilan cheklanib, tanqidiy yondashuv, muammoli tahlildan yiroqlashgan. Maqolalar targ'ibotga o'xshab, jurnalistik izchillikdan mahrum. Masalan, chorvachilik yoki bandlik mavzusidagi materiallarda muammo sabablari va real natijalar ochib berilmagan, oddiy fuqarolar fikri yoki intervyular kam uchraydi. Natijada, nashr jonli gazeta emas, balki rasmiy hujjatdek taassurot qoldiradi. Murakkab, sovetcha jumlar ko'p, oddiy o'quvchi uchun tushunish qiyin⁶⁶. Auditoriyaga moslashuv zaif, yoshlar, ayollar yoki tadbirkorlar uchun jozibali kontent yo'q. Dizayn jihatidan rasmlar faqat rasmiy suratlar, infografika va jadvallar mavjud emas, zamonaviy vizual elementlar yetishmaydi. Takroriy mavzular (ta'lim, tarbiya, davlat siyosati) ustunlik qiladi. Yangilik va kreativ sarlavhalar kam, shuning uchun o'quvchi jalb qilinmaydi. Umuman, gazeta rasmiy axborot berishda mustahkam, ammo tahlil, tanqid va interfaol kabi zamonaviy jurnalistika tamoyillarida orqada qolgan.

Biroq, 2026 yilga kelib "Sadoqat" gazetasidagi ijobiy transformatsiya ko'zga tashlanadi. Nashrda hayotiy voqealar, insoniy hikoyalar va tarbiyaviy maqolalar orqali milliy qadriyatlar ("otaxon", "sadoqat" kabi tushunchalar) jonlantirilgan. Masalan, "Bekor turishni o'ziga ep bilmaydigan otaxon" sarlavhali maqolada mehnatsevarlik va ibratli voqealarni birdaniga

⁶⁴ Voha gazetasi. – Qarshi shahri, 2023 yil 10 noyabr, №45–46.

⁶⁵ Voha gazetasi. – Qarshi shahri, 2019 yil 16 avgust, maxsus son.

⁶⁶ Sadoqat gazetasi: Qashqadaryo viloyati Kasbi tumani gazetasi. – Qarshi, 27.11.2020y. – № 43–44.

ochib beradi. U o'quvchini qiziqtirib, e'tiborni tortadi⁶⁷. Gazetaning ijobiy jihati mazmun aniq ijtimoiy-tarbiyaviy, sarlavhalar qisqa va ta'sirli, milliy ruh boyitilgan. Ijobiy tomoni bilan bir qatorda gazetaning kamchiliklari ham mavjud. Ba'zi sarlavhalar hali ham biroz uzun, materiallar ocherk uslubiga yaqin

2020 va 2026 yilgi sonlarining jurnalistik tahlili asosida 2020 yil soni klassik hikoya uslubida, ya'ni tarbiyaviy ruh kuchli, ammo sarlavhalar uzun va umumiy, yangilik elementi past. 2026 yil esa muammo-yechim tahlillari, hayotiy voqealar qo'shilgan. Sarlavhalar qisqaroq, dizayn qulay (rubrikalar tartibli), kontent rang-barang, milliy ruh yangi mavzular bilan uyg'unlashgan. Natijada, 2026 yil soni 2020 yilga nisbatan o'quvchiga qiziqroq va foydaliroq. "Tiraj 2020 yilda 1050⁶⁸ dan 2026 yilda 710 ta"⁶⁹ga tushgani sifat pasayishi deb emas, bosma nusxaga talab kamayganligi va raqamli platformalarda auditoriya kengayib, tarqalish kuchayganligidan dalolat beradi.

"Chiroqchi" gazetasining ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari tuman yangiliklarini tezkor yetkazishga qaratilgan, ammo interfaollik darajasi past. "Telegram (t.me/chiroqchi_press) bo'lib, 6,211 ta obunachiga ega, mahalliy hodisalarni jonli yoritib boradi. Masalan, yoshlar kuniidagi shaxmat chempionati yoki xayriya hashari haqida fotosuratlar va videolar bilan postlar joylaydi⁷⁰. Telegram sahifasining eng katta kamchiligi gazetaning elektron shakli berilmaydi, faqat qisqa yangiliklar berib boriladi. Izohlar funksiyasi ham cheklangan, izoh yozishning imkoni yo'q.



Gazetaning "Instagram" sahifasi (Instagram.com/chiroqchida_bugun)da 48 900 ta



foydalanuvchilari bo'lib, yangiliklarni qisqa videolar va fotosuratlar orqali taqdim etadi, aloqa uchun telefon nomerlar yozilgan, foydalanuvchilarni telegram kanaliga obunaga chaqiradi⁷¹. Instagram sahifasida postlar soni kam, interfaollik ham minimum ko'rinishda, saytda havola va local kontentlar yo'q.

"Chiroqchi" gazetasining YouTube sahifasi topilmadi. Bundan ko'rinib turibdiki, yoritilayotgan yangiliklar, kontentlar tuman aholisiga yaqin, ammo raqamli transformatsiya

yetishmayapti, ya'ni arxiv hujjatlarning electron shakllari hamda jonli efirlar bo'lsa yanada takomillashgan bo'lardi.

"Qashqadaryo sporti" gazetasining ijtimoiy platformalari viloyat sporti hayotini jonlantirishda markaziy o'rin tutadi. Ammo ularning imkoniyatlarini to'liq ochish uchun qo'shimcha harakatlar talab etiladi. "Telegram" kanali (t.me/qashqadaryosport) bo'lib, 1096

⁶⁷ Sadoqat gazetasi: Qashqadaryo viloyati Kasbi tumani gazetasi. – Qarshi, 17.03.2026y. – № 5-6.

⁶⁸ Sadoqat gazetasi: Qashqadaryo viloyati Kasbi tumani gazetasi. – Qarshi, 27.11.2020y. – №43-44. O'sha manba.

⁶⁹ Sadoqat gazetasi: Qashqadaryo viloyati Kasbi tumani gazetasi. – Qarshi, 17.03.2026y. – №5-6. O'sha manba.


⁷⁰ Chiroqchi.uz. (2026, April 4). Telegram sahifasi. https://t.me/chiroqchi_press.

⁷¹ Chiroqchida_bugun. (2026, April 4). Instagram sahifasi. https://instagram.com/chiroqchida_bugun.

ta obunachilarga ega. Telegram kanalda “Jurnalistlar uyidagi matbuot anjumanlari”ning jonli aks etishi, 2024-yilgi sport natijalari va “Biz - donormiz!” kabi hayriya aksiyalari kabi postlar joylab boriladi. Viloyat sport boshqarmasining 2026 yil rejalarini e’lon qilish orqali aholini oldindan xabardor qiladi. Masalan, yig’ilishlardan birida Adham Ikramovning nutqi va “Biz – donormiz!” hayriya aksiyasidagi qon topshirish jarayoni qisqa videolar bilan ko’rsatilgan⁷². Bu obunachilarga real vaqtda sportdagi o’zgarishlarni yetkazib, mas’uliyatni oshiradi. Chiroqchining telegram sahifasi kabi Qashqadaryo sportining telegram sahifasida gazetaning PDF nusxasi yuklanmaydi, faqat qisqa tezkor xabarlar berib boriladi.

Gazetaning “Instagram” sahifasi (instagram. com/viloyatsport)da 662 ta foydalanuvchisi bo‘lib, u yerda sportchilarning olimpiya tayyorgarligi fotosuratlarini, gimnastika maktablari va G‘uzor sport kompleksi haqidagi short videolar orqali vizual joziba yuqori⁷³. Havolalar orqali Telegramga o‘tishni rag‘batlantirib, platformalararo bog‘lanishni ta’minlaydi. Storylarda poll yoki savollar kam, hashtaglar (Qashqadaryosport, OmmaviySport) yetarli darajada ishlatilmaydi, obunachilar faolligi o‘rtacha, postlar orasidagi interval uzun.

Facebook va YouTube kanallari ham mavjud bo‘lib, “Facebookda 459 ta obunachi bo‘lib, viloyatdagi 33 ta sport maktabi statistikasi va MOQ rahbariyatining tashriflari haqida batafsil matnlarni ko‘rish mumkin. Sahifada Qarshi olimpiya markazi va voleybol zalidagi tadbirlar haqida geolokatsiyali postlar ham mavjud⁷⁴. “YouTubeda yengil atletika bo‘yicha videoroliklar (Jonbibi Hukmova musobaqasi) mavjud bo‘lib, musobaqa paralarini aks ettiradi. YouTubeda obunachilari soni 3 093 ta bo‘lib, 2020 yil 22 iyulda ish boshlagan. Shu vaqtgacha kanalga 238 ta video joylangan⁷⁵. Ijtimoiy tarmoqlari Telegramga nisbatan faollik pastroq, videolar soni cheklangan (1 daqiqadan oshmaydi).



“Dehqonobod ovozi” gazetasi Dehqonobod tumanidagi mahalliy nashr bo‘lib, asosan tuman hokimligi va Kengash yangiliklarini yoritadi. Mahalliy xabarlarini tezkor yetkazish gazetaning yutuqlaridan biri. Tuman hayotidagi voqealar, madaniy tadbirlar (masalan, shoirlarning tadbirlardagi yig’ilishlari) haqida axborot beradi. Qonuniy tahririyat sifatida ro‘yxatdan o‘tgan, muntazam nashr etiladi. Gazeta 1972 yil 1 apreldan qayta chiqa boshlagan. Viloyat matbuot va axborot boshqarmasida 2007 yil 12 yanvarda ro‘yhatga olingan. Gazetaning 2025 yilgi tiraji 250

⁷² Qashqadaryo sport. (2026, April 4). Telegram kanali. <https://t.me/qashqadaryosport>.

⁷³ Viloyatsport. Instagram sahifasi. <https://instagram.com/viloyatsport> (Accessed April 4, 2026).

⁷⁴ Qashqadaryo sporti. (2026, April 4). Facebook sahifasi. <https://facebook.com/profile.php?id=100081507883792&mibextid=ZbWKwL>.

⁷⁵ Qashqadaryo sporti. (2026, April 4). YouTube sahifasi. <https://youtube.com/@qashqadaryosport>.

nusxani tashkil etadi⁷⁶. Kamchiliklaridan biri faqat tuman hokimligi va rasmiy yangiliklarga e'tibor qaratadi, mustaqil tahlillar kam. Bosma nashrda tiraji kam. Boshqa O'zbekiston gazetolari kabi siyosiy-ma'naviy mavzularda kengroq yoritish imkoniyati bor, ammo lokal darajada bir xillikka tushib qolgan.

Raqamli shakli "Telegramda t.me/Dehqonobod_ovozi_gazetasi bilan faoliyat yuritadi. Telegram sahifasida gazetaning 2020 yildan to hozirgacha bo'lgan elektron nusxalari keltirilgan. Bundan tashqari kanalda e'lonlar ham berib boriladi. Gazetaning 2025 yil uchun 1yillik obuna narxi 330 mingni tashkil etadi. Tumandagi tadbirlardan lavhalar, qisqa reportajlar berib boriladi. Telegramda obunachilari soni 44 tani tashkil etadi⁷⁷. Bundan tashqari Dehqonobod ovozi nomli Telegramda kanal ham mavjud bo'lib, dunyo yangiliklari xususan tumandagi barcha yangilik va xabarlarini yoritib boradi. Uning foydalanuvchilari soni 7 182 tani tashkil etadi⁷⁸. Nashr mazmunini mustaqil maqolalar bilan boyitish va Instagram kabi platformalarda faollashish orqali auditoriyani kengaytirish imkoniyati mavjud.

Qashqadaryo viloyatidagi mahalliy matbuot nashrlari faoliyatining tahlili shuni ko'rsatadiki, hududiy gazetalarining an'anaviy shakli jiddiy iqtisodiy va tizimli inqirozni boshdan kechirmoqda. Bosma tirajlarning qisqarishi faqatgina umumiy pasayish emas, balki o'quvchilar qiziqishining raqamli platformalarga ko'chishi bilan bog'liq ob'ektiv jarayondir.

Biroq mahalliy tahririyatlar raqamli makon imkoniyatlaridan hali ham to'liq va professional darajada foydalana olmayapti. Ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalar ko'pincha quruq va qisqa rasmiy xabarlar tarqatish maydoniga aylanib qolgan. Hududiy matbuotni saqlab qolish va zamonaviylashtirish uchun quruq rasmiy hisobotlardan voz kechib, aholini qiynayotgan muammolar tahlili, ekspertlar bilan chuqur intervyular va insoniy hikoyalarga urg'u berish, ijtimoiy tarmoqlarda ochiq muloqotni (izohlarni) yo'lga qo'yish, so'rovnomalar o'tkazish va o'quvchilar bilan qayta aloqa tizimini shakllantirish lozim. Bundan tashqari har bir nashrning Telegram kanallarida gazetaning elektron PDF formatlarini muntazam joylashtirish, YouTube va Instagram kabi vizual tarmoqlarda sifatli multimedia (jonli efir, video-reportaj) mahsulotlarini ko'paytirishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Chiroqchi.uz. (2026, April 4). Telegram sahifasi. https://t.me/chiroqchi_press.
2. Chiroqchida_bugun. (2026, April 4). Instagram sahifasi. https://instagram.com/chiroqchida_bugun.
3. Dehqonobod gazetasi. Telegram kanali. 09.04.2026. https://t.me/Dehqonobod_ovozi_gazetasi.

⁷⁶ Dehqonobod ovozi gazetasi. (2025, 20 iyun) – №6.

⁷⁷ Dehqonobod gazetasi. Telegram kanali. 09.04.2026. https://t.me/Dehqonobod_ovozi_gazetasi.

⁷⁸ Dehqonobod ovozi. Telegram kanal. 09.04.2026. <https://t.me/dehqonobodovozi>.

4. Dehqonobod ovozi. Telegram kanal. 09.04.2026. <https://t.me/dehqonobodovozipress>.
5. Dehqonobod ovozi gazetasi. (2025, 20-iyun) – №6.
6. Qashqadaryo sport. (2026, April 4). Telegram kanali. <https://t.me/qashqadaryosport>.
7. Qashqadaryo sporti. (2026, April 4). Facebook sahifasi. <https://facebook.com/profile.php?id=100081507883792>.
8. Qashqadaryo sporti. (2026, April 4). YouTube sahifasi. <https://youtube.com/@qashqadaryosport>.
9. Sadoqat gazetasi: Qashqadaryo viloyati Kasbi tumani gazetasi. – Qarshi, 27.11.2020y. – № 43–44.
10. Sadoqat gazetasi: Qashqadaryo viloyati Kasbi tumani gazetasi. – Qarshi, 17.03.2026y. – № 5-6.
11. Viloyatsport. Instagram sahifasi. <https://instagram.com/viloyatsport> (Accessed April 4, 2026).
12. Voha gazetasi. – Qarshi shahri, 2019-yil 16-avgust, maxsus son. Voha gazetasi. – Qarshi shahri, 2023-yil 10-noyabr, №45–46.
13. Xabar.uz. “Va’ dabozi tashkilot”. Qashqadaryo “Matbuot tarqatuvchi” ShK atrofidagi mashmashalar. <https://www.xabar.uz/uz/jamiyat/vadaboz-tashkilot-qashqadaryo-matbuot?> 26.12.2018.